

**TALABALARNI OILAGA TAYYORLASHDA FITRATNING “OILA” ASARI  
FARZAND TARBIYASIDA MUHIM MANBA SIFATIDA**

*TAFU Pedagogika kafedrası*

*katta o‘qituvchisi*

**Ismoilova Marhabo Xamitovna**

*e-mail: ismoilovamarhabo22@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Fitratning “Oila” asariga tayangan holda talabalarni oilaga munosib qilib tarbiyalash, bunda farzand tarbiyasiga e’tibor qaratish munim masalalardan ekanligi yoritib berilgan. Shuningdek, Fitratning “Oila” asari orqali talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va pedagogik jarayonning integratsiyalari bo’yicha ilmiy taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Pedagogik ta’lim, Abdurauf Fitrat, oliy ta’lim, talaba, odob, axloq, farzand tarbiyasi, ta’lim-tarbiya, takomillashtirish, davlat, jamiyat, kuch, imkoniyat, yoshlar, o‘z fikri, yuksak ma’naviyat.*

*Bizning farzandlarimiz eng yaxshi, zamonaviy sharoitlarga munosib.*

**Sh. Mirziyoyev**

**KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6 mart kuni Toshkentdagi Xalqaro kongress markazida 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan bayram tadbirida nutq so‘zlab, “Oila – mehr va baxt qo‘rg‘oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne’mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma’naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug‘ saodatdir. Mashhur qo‘shiqlardan birida aytilganidek, “Uyida baxti borlar har yerda baxtiyordir”. Men aziz yigit-qizlarimizga murojaat qilib aytmoqchiman: turmush qurishga, oilaga, farzand taqdiriga nihoyatda chuqur mas’uliyat bilan qarang. Bu masalaga yuzaki yondashib, ham o‘zingiz, ham o‘zga bir inson hayotini xavf ostiga qo‘ymang”, deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Bu O‘zbekiston xalqiga, ayniqsa, yosh yigit-qizlarga murojaat, da’vat ham bo‘ldi.

Farzand tarbiyasi barcha davrlarda ham dolzarlik kasb etib kelgan. Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas’uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas’uliyat bilan yondashmog‘i lozim. Kelajakdagi yo‘li ravon bo‘lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo‘lgan farzandlarini ulg‘aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo‘ladi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Agar ota-ona vaqtida farzandiga e’tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg‘urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O’sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech

bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e’tiborli bo‘lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo‘lmaslik lozim.

Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan naql bejizga aytilmagan. Har bir ota-ona o‘z farzandi uchun ko‘zguidir. Ularning muomala va munosabati, o‘zini tutishi farzandiga bo‘lgan e’tibori alohida ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bolaga ilm-u adab o‘rgatish uchun muallim chaqirishdir. O‘g‘ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo‘ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir”. Bu fikrlar orqali qattiqqo‘llik va shafqatning me’yorda bo‘lishini bilish mumkin.

Mirzo Ulug‘bekning oila muhitini yaxshilash, sog‘lom tarbiya berish haqida quyidagi qarashlari mavjud. Bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, ya’ni oila muhim o‘rin egallaydi. Oilada ota-onalar bilimli bo‘lishini, tarbiya berishda ota-onaning o‘zi o‘rnak va hayotiy misol bo‘lishiga farzandi guvoh bo‘lishi eng ko‘p samara berishi ta’kidlangan.

Jadid adabiyotining namoyandasi Abdurauf Fitrat jamiyat rivoji va yurt ravnaqi farovonligida oilaning o‘rni xususida fikr yuritib, “Oila” asarida shunday mulohazalar bildiradi: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”.

### **TAHLIL VA XULOSALAR**

Fitrat “Oila” asarida “Oiladagi eng og‘ir vazifa bola tug‘ilgandan keyingi farzand tarbiyasidir. Farzand tarbiyasi aslida ikki kalimadan iborat. Shuning uchun ham nazaringizda juda mayda muammodek ko‘rinadi. Lekin dono odamlar biladilarki, bani Odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu ikki so‘z - “bola tarbiyasi”dan iborat birikmaga bog‘liq. Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi, bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq. Bir hakim aytgan ekan: “Bani Odam bolalarining tarbiyasini menga qoldirsalar, odamlarning ahvolini butunlay o‘zgartirib yuborar edim” degan fikrlar bilan farzand tarbiyasi naqadar murakkab va mas’uliyatli jarayon ekanligini uqtirib o‘tadi. Millat taqdiri, mamlakat taqdiri bugungi yoshlar qo‘lida ekanligi va har qanday davrlarda tarbiya masalasi pedagogik jarayonning ham asosiy bo‘g‘ini bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda avvalo shu talaba yoshlarni mustaqil hayotga qadam bosishlarida to‘g‘ri yo‘ldan og‘ishmay oila tushunchalari, oilaning mas’uliyati va undan keyin farzand tarbiyasi tushunchalarini pedagogik jarayonlarda turli metodikalar orqali o‘rgatish, ularning pedagogik bilimlarini mustahkamlashda tarixiy merosimizga nazar tashlagan holda, Fitratning “Oila” asari asosida o‘qitish pedagogik bilimlarini mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ilm-fanni keng targ‘ib etilishida ya’ni tarbiya usullarida hadislar, olimlarimizning tarbiyaviy qarashlari aks etgan ilmiy merosiga nazar tashlash yanada samaradorlik kasb etadi. Fitrat “Oila” asarida “odamning kamoli faqat sog‘liq va kuchdan iborat bo‘lmay, balki jismonan, aqlan va axloqan yuksalishdan iborat. Odamning jismi, aqli va axloqi turli kasallik va nuqsonlardan uzoq bo‘lishi lozim. Odam ham o‘z manfaatini o‘ylab, ham yaqinlarini baxtiyor qilishga qodir bo‘lib o‘sishi lozim” deb ta’kidlaydi. Bu fikrlar oradan ma’lum yillar o‘tgan bo‘lsada, bugungi kun tarbiyasida ham dolzarblik kasb etadi. Pedagogik turkum fanlarda, jumladan “Milliy tarbiya asoslari”, “Tarbiya fanini o‘qitishning innovatsion texnologiyalari”, “Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi” modullarida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda Fitratning “Oila” asaridagi fikrlar asosida o‘qitishning samarasini yuqoridagi fikrlar asoslab beradi. Farzand tarbiyasidan oldin bo‘lajak oila boshliqlarining sog‘lom fikrlashlariga erishish, farzand tarbiyasida natijalarga erishishga asos bo‘ladi. Oilaviy munosabatlarda namuna bo‘lish bilan bir qatorda, pedagogik jarayondagi bilimlar mustahkamlanib borib, yoshlarimizni mustaqil hayotga tayyorlashda, tarixiy ilmiy asarlarimizga tayangan holda birgalikda bilimlar mustahkamligiga erishish albatta yaxshi natijalar beradi.

Oilada ma’naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Oila va shu bilan birgalikda jamiyat sog‘lom, yetuk farzandni ulg‘aytirib kamol toptirishda mas’uldir. Farzandni sog‘lom, yetuk, bilimli, shijoatli qilib voyaga yetkazish oilaga, ota-onaga va vatanga katta mas’uliyat va shu bilan birgalikda sharaf ham hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdurauf Fitrat. Oila Toshkent 2013
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
3. Dewey, John. Demokratiya va ta’lim. New York: Macmillan, 1916.
4. Nishonov, H. Milliy g‘oya va tarbiya masalalari. Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
5. Karimova, Z. Innovatsion pedagogika va tarbiya. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2019.
6. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Toshkent: Fan, 1993.
7. G‘oyibova Sh.O.Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini pedagogika fanlari nozodlik dissertatsiyasi. T.1998 y.143 b
8. Sh.Olimov Fitrat merosini o‘rganish. Ilmiy tadqiqot ishi. Turkiya 2022 yil. 314 bet
9. K. Xoshimov, Hasanov R. Abdurauf Fitrat. Pedagogika tarixi. - Toshkent, O‘qituvchi, 1996 - 307 -320.
10. 10. G.Niyozov. M.E.Axmedova Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlar uchun oquv qo‘llanma. T.2011
11. 11. M.E.Axmedova “Pedagogika nazariyasi va tarixi” nomli o‘quv qo‘llanma. T.2011

20-Oktyabr, 2025-yil

12. 12. M.Xayrullayev. Ma'naviyat yulduzlari ( Markaziy Osiyolik mashxur siymolar, allomalar , adiblar).T.1999 y
13. 13. Axatova D. Abdurauf Fitratning ma'rifiy — pedagogik qarashlari. Ped.fan.nomz.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disser.T.N.Qori — Niyoziy nomidagi O'zPFITI kutubxonasi. Inv. 1229693. — B.10
14. 14. Sh.A.Abdujalilova A.Fitratning Oila tarbiyasiga oid qarashlari Ped.fan.nomz.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disserT.2005.. — B.128

